XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 3-noyabr VII-15-143-3-46-K/25 Sharof Rashidov tumani

Sharof Rashidov tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni

rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining

3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sharof Rashidov tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Sharof Rashidov tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Sharof Rashidov tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 160 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 20.3 foiz (12 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 10.6 foiz (9 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun33.3 foiz (127 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 21.8 foiz (9 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 9.2 foiz (3 kishi) ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

- zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Sharof Rashidov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

- ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Sharof Rashidov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

- ishga joylashtirish to‘g‘risida Sharof Rashidov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,

ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Sharof Rashidov tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Sharof Rashidov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (D.Rashidov):

- besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

- aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining
2025-yil 3-noyabrdagi
VII-15-143-3-46-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sharof Rashidov tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari
(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning Stiri	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
1	Sh.Rashidov tuman Tibbiyot birlashmasi	201369784	1845	17	24	2	4	16	2		
2	Sh.Rashidov tuman Davlat sanitariya-epidamalogiya markazi	201009850	42	2	1			1			
3	Jizzax viloyat Ruxiy kasalliklar dispanseri	201672829	275	3	3	1		1	1		
4	Sh.Rashidov tuman"Jizzax sanatoriyasi"	204317252	104	4	2		1		1		
5	Sh.Rashidov tuman 1-sonli kasb hunar maktabi	307873301	91	3	2			1	1		
6	Sh.Rashidov tuman 2-sonli kasb hunar maktabi	307773774	93	1	1			1			
7	Sh.Rashidov tuman Xalq ta’limi bo‘limi	201369776	68		1			1			
8	Sh.Rashidov tuman№ 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872694	82		1			1			

9	Sh.Rashidov tumanⅯ 3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206876142	90		1			1			
10	Sh.Rashidov tumanⅯ 4-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206876142	99		1			1			
11	Sh.Rashidov tumanⅯ 5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206880313	118	1	1			1			
12	Sh.Rashidov tumanⅯ 6-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206876134	109		2			2			
13	Sh.Rashidov tumanⅯ 9-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872100	64	1	1			1			
14	Sh.Rashidov tumanⅯ 10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203354382	107		2			2			
15	Sh.Rashidov tumanⅯ 11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203192110	122		2			2			
16	Sh.Rashidov tumanⅯ 12-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206864047	124		2			2			
17	Sh.Rashidov tumanⅯ 13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206874880	119	1	2			2			
18	Sh.Rashidov tumanⅯ 14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203204268	121		2			2			
19	Sh.Rashidov tumanⅯ 15-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206864023	84		2			2			
20	Sh.Rashidov tumanⅯ 16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865916	79		1			1			
21	Sh.Rashidov tumanⅯ 17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206880320	109		2			2			
22	Sh.Rashidov tumanⅯ 18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865948	68		1			1			
23	Sh.Rashidov tumanⅯ 19-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872243	119		2	1		1			
24	Sh.Rashidov tumanⅯ 20-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872250	110	1	2			2			
25	Sh.Rashidov tumanⅯ 21-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206873006	108		1			1			
26	Sh.Rashidov tumanⅯ 22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872038	91		2			2			
27	Sh.Rashidov tumanⅯ 23-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203278896	89		2			2			
28	Sh.Rashidov tumanⅯ 24-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872307	60		2			2			
29	Sh.Rashidov tumanⅯ 25-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203198291	63	1	2			2			
30	Sh.Rashidov tumanⅯ 26-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872053	28		1			1			

31	Sh.Rashidov tumanⅯ 27-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872274	68		2			2			
32	Sh.Rashidov tumanⅯ 29-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865909	107	1	2	1		1			
33	Sh.Rashidov tumanⅯ 30-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203271108	89		2			2			
34	Sh.Rashidov tumanⅯ 31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872267	113		1			1			
35	Sh.Rashidov tumanⅯ 32-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203262134	86		2			2			
36	Sh.Rashidov tumanⅯ 33-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206864030	48		1			1			
37	Sh.Rashidov tumanⅯ 34-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203286032	63		1			1			
38	Sh.Rashidov tumanⅯ 35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872045	76		2			2			
39	Sh.Rashidov tumanⅯ 36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	202384734	105		2	1		1			
40	Sh.Rashidov tumanⅯ 37-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206874074	63		2			2			
41	Sh.Rashidov tumanⅯ 38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872282	67		1			1			
42	Sh.Rashidov tumanⅯ 39-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872117	56		2			2			
43	Sh.Rashidov tumanⅯ 40-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872124	68		1			1			
44	Sh.Rashidov tumanⅯ 41-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872299	49		1			1			
45	Sh.Rashidov tumanⅯ 42-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872084	55		1			1			
46	Sh.Rashidov tumanⅯ 43-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206911368	57		1			1			
47	Sh.Rashidov tumanⅯ 44-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206880344	53		2	1		1			
48	Sh.Rashidov tumanⅯ 45-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872228	50		1			1			
49	Sh.Rashidov tumanⅯ 46-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203293870	47		2			2			
50	Sh.Rashidov tumanⅯ 47-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206880337	48		2			2			
51	Sh.Rashidov tumanⅯ 50-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872235	71		1			1			
52	Sh.Rashidov tumanⅯ 53-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872092	57		1			1			

53	Sh.Rashidov tumanⅯ 54-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206904620	69	1	1			1			
54	Sh.Rashidov tumanⅯ 55-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206865924	78		2			2			
55	Sh.Rashidov tumanⅯ 56-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872077	53		1			1			
56	Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Sharof Rashidov tuman ixtisoslashtirilgan maktabi davlat muassasasi	309867314	69	1	2			2			
57	Sh.Rashidov tumanⅯ 1-son "Nazokat" nomli MTM	207003064	86		1			1			
58	Sh.Rashidov tuman Ⅿ 2-son MTM	207031441	45		1			1			
59	Sh.Rashidov tumanⅯ 3-son "G‘uncha" nomli MTM	207005171	50		1			1			
60	Sh.Rashidov tumanⅯ 4-son "Lola" nomli MTM	207031781	50		2	1		1			
61	Sh.Rashidov tumanⅯ 5-son "Boshoqcha" nomli MTM	207152759	55		1			1			
62	Sh.Rashidov tumanⅯ 6-son "Ozoda" nomli MTM	207033541	28		1			1			
63	Sh.Rashidov tuman Ⅿ 7-son DMTM	207050807	55		2			2			
64	Sh.Rashidov tumanⅯ 9-son "Baxor" nomli MTM	207003071	61		1			1			
65	Sh.Rashidov tumanⅯ 13-son "Dilnoza" nomli MTM	207003056	57		1			1			
66	Sh.Rashidov tumanⅯ 14-son DMTM	207003095	57		2	1		1			
67	Sh.Rashidov tumanⅯ 15-son DMTM	207262241	41		1			1			
68	Sh.Rashidov tumanⅯ 17-son DMTM	207050799	38		1			1			
69	Sh.Rashidov tumanⅯ 18-son DMTM	207050664	44		1			1			
70	Sh.Rashidov tumanⅯ 19-son DMTM	207033669	25		1			1			
71	Sh.Rashidov tumanⅯ 20-son DMTM	207031434	36		1			1			
72	Sh.Rashidov tumanⅯ 21-son DMTM	306466894	59	1	1			1			
73	Sh.Rashidov tumanⅯ 22-son DMTM	207050774	40		1			1			
74	Sh.Rashidov tumanⅯ 23-son DMTM	207050767	63		1			1			
75	Sh.Rashidov tumanⅯ 24-son DMTM	207050782	30		1			1			
76	Sh.Rashidov tumanⅯ 25-son DMTM	205669653	63		1			1			

77	Sh.Rashidov tuman№ 27-son "Istiqlol" nomli MTM	207003088	46		1			1			
78	Sh.Rashidov tuman№ 1-son Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	207238547	68	1	1			1			
79	Sh.Rashidov tuman№ 8-son Bolalar musika va san’at maktabi	207057646	55	3	2		1	1			
80	Sh.Rashidov tuman Barkamol avlod bolalar markazi	207123761	47	2	1			1			
81	Viloyat Nasos stansiyalari, energetika va aloka boshqarmasi	202390055	308	3	4			3	1		
82	Sh.Rashidov tuman Yo‘l xo‘jaligi pudrat ta’mirlash-foydalanish davlat karxonasi	206904620	125	6	3	1		1		1	
83	Sh.Rashidov tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	201009503	151	4	6	1		1	2	2	
84	Jizzax Melerotiv ekspeditsiyasi	202395784	204	2	4	1	1	1	1		
85	Ayollar muruvvat internat uyi	309929591	110	3	5		2	3			
			8543		**160**	**12**	**9**	**127**	**9**	3	